



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI



2020-YIL



2020-yilda sog'liqni saqlash sohasiga bo'lgan e'tibor nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo ahli uchun ham nihoyatda dolzarb mavzu bo'ldi. Barchani larzaga solgan epidemiya ushbu soha xodimlarini qattiq sinovdan o'tkazdi. Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish mamlakatimizda eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoda. Bu borada davlat–xususiy sherikchilik asosida xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish, hamda sog'lom raqobatni kuchaytirishga e'tibor qaratilmoqda.

Tibbiy xizmatning sifat va samaradorligini yanada yuksaltirish, sohaga oid ilg'or innovatsiyalarni muntazam amaliyotga tadbiq etish, soha xodimlarining bilim va malakasini doimiy oshirib borish, shifoxona muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda.



2020-yilda Andijon viloyatida shifoxona muassaslari faoliyati




Andijon viloyatida 2020-yil yakuni bo'yicha 154 ta shifoxona muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ulardagi bemorlar uchun ajratilgan o'rinlar soni 15 711 ta bo'lib, yil davomida davolangan bemorlar soni 1112,6 ming kishini tashkil etdi. Jami shifoxona muassasalarining 116 tasi, yoki 75,3 % kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi.

Tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan shifokorlar soni jami 7784 nafar bo'lib, ulardan 3409 nafari (43,8%) ayollardan iborat. O'rta tibbiyot xodimlari soni jami 31130 nafarni tashkil etadi, ulardan 28273 nafari (90,8 %) ayollar hissasiga to'g'ri keladi.



2020-yilda Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni, (birlik)



Ma'lumot uchun:



Shifoxona – tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega bo'lgan, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi. Shifoxona muassasalarida zaruriy anjomlar bilan jixozlangan va band bo'lishi yoki band bo'lmasligidan qat'iy nazar, kechayu-kunduz davomida bemorlarni qabul qilish uchun tayyor turgan **shifoxona o'rinlari** hisobga olinadi

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan shifoxona muassasalari soni dinamikasi, (birlik)



	2010-y	2011-y	2012-y	2013- y	2014- y	2015- y	2016- y	2017- y	2018-y	2019- y	2020-y
Viloyat bo'yicha	92	107	123	123	117	125	136	136	139	149	154
Andijon sh.	43	47	51	51	50	52	57	51	49	49	56
Xonobod sh.	2	2	3	3	3	3	4	1	2	3	4
tumanlar:											
Oltinko'l	2	3	4	4	3	4	4	4	5	6	7
Andijon	7	9	8	8	7	8	9	12	7	7	3
Baliqchi	4	5	7	7	7	7	8	7	4	3	1
Bo'ston	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2
Buloqboboshi	2	2	2	2	2	2	2	3	4	6	2
Jalaquduq	2	2	3	3	2	3	3	3	4	2	3
Izboskan	5	7	9	9	9	9	10	11	11	12	11
Ulug'nor	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Qo'rg'ontepa	3	3	4	4	3	4	4	5	6	6	2
Asaka	6	7	8	8	8	8	9	9	12	12	12
Marxamat	4	5	7	7	6	7	7	7	7	4	6
Shaxrixon	5	7	8	8	8	9	10	12	13	12	15
Paxtaobod	2	3	3	3	3	3	3	6	9	21	21
Xo'jaobod	3	3	4	4	4	4	4	3	4	4	8

Andijon viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyati




2020-yilda Andijon viloyatida 489 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Ulardan 85 tasi qishloq vrachlik punktlari hisoblanadi. O'tgan 2019-yilga nisbatan taqqoslaganda ular soni 15 taga ortgan.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari bir smena davomida 41377 nafar bemorlarni qabul qilish quvvatiga ega. Yil davomida qatnovlar soni 25052,6 ming nafarni tashkil etdi, hamda qayd qilingan kasalliklar soni 2044,3 mingtadan iborat. Jumladan: 14 yoshgacha bolalar soni 576,6 ming nafar, 15-17 yoshli bolalar soni - 146,1 ming nafar va 18 yosh va undan katta yoshdagi bemorlar soni 1321,6 ming nafar.



2020- yilda Andijon viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni , (birlik)



Ma'lumot uchun:



Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soniga – aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashtif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, QVP lari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslaxatxonalari kiradi.

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni dinamikasi, (birlik)

2010-yil-464

2011-yil-539

2012-yil-560

2013-yil-550

2014-yil-527

2015-yil-529

2016-yil-528

2017-yil-383

2018-yil-428

2019-yil-474

2020-yil-489



Ma'lumot uchun



Aholining kasallanishi – yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ambulator-poliklinikalar soni, (birlik)

	2010- y	2011- y.	2012- y	2013- y.	2014- y	2015- y	2016- y.	2017- y.	2018- y	2019- y.	2020- y
Viloyat bo'yicha	464	539	560	550	527	529	528	383	428	474	489
Andijon sh.	117	132	135	130	122	125	111	103	108	139	104
Xonobod sh.	4	5	6	6	5	6	5	3	4	4	4
tumanlar:											
Oltinko'l	21	27	31	33	32	31	30	20	22	25	27
Andijon	24	28	29	27	28	32	30	21	27	31	30
Baliqchi	18	22	20	19	18	20	27	19	17	19	32
Bo'ston	11	13	14	14	15	14	16	10	10	11	11
Buloqboshi	18	23	25	25	24	20	23	16	22	26	25
Jalaquduq	25	30	31	31	28	25	31	20	21	18	24
Izboskan	24	35	38	36	38	35	36	28	29	32	37
Ulug'nor	11	12	14	14	14	13	14	9	9	10	9
Qo'rg'ontepa	29	33	35	35	36	35	31	23	29	29	32
Asaka	39	41	42	40	39	41	40	26	34	34	41
Marxamat	31	35	33	29	26	28	32	20	19	21	25
Shaxrixon	38	44	45	45	44	48	48	35	37	36	43
Paxtaobod	29	33	33	32	28	30	29	13	18	17	19
Xo'jaobod	25	26	29	34	30	26	25	17	22	22	26

Andijon viloyati shixona muassaslarida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlari




2020-yil yakuni bo'yicha viloyat shifoxonalarida jami 38914 nafar tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. O'tgan 2019-yilga nisbatan ular soni 1206 nafarga ortgan. Jami tibbiyot xodimlarining 4,2 % kichik biznes sub'ektlarida faoliyat olib boradi.

Tibbiyot xodimlarining 7784 nafari yoki 25,0 % shifokorlar va qolgan 31130 nafari yoki 75,0 % o'rta tibbiyot xodimlari hisoblanadi.

Sohada xizmat qilayotgan jami tibbiyot xodimlarining 31682 nafari yoki 81,4 % ni ayollar tashkil etadi.



Andijon viloyat tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan shifokorlar soni , (kishi)



Ma'lumot uchun :



Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soniga – yil yakuniga ko'ra tibbiy, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek tibbiyot xodimlarini tayyorlash muassasalari, sog'liqni-saqlash organlari apparatlarida va boshqa tashkilotlarda band bo'lgan oliy tibbiy ma'limotga ega barcha shifokorlar sonini ifoda etadi.



Andijon viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlar soni, (kishi)



	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Andijon viloyati	5794	6003	6155	6332	6492	6630	6753	6838	7332	7641	7784
Andijon sh.	2950	3067	3098	3143	3169	3204	3365	3241	3690	3807	3823
Xonobod sh.	59	63	63	66	66	74	78	71	79	77	81
tumanlar:											
Oltinko'l	185	194	205	209	211	241	204	216	230	234	244
Andijon	252	261	272	280	290	287	311	317	334	347	357
Baliqchi	208	215	215	224	236	226	256	267	230	248	300
Bo'ston	45	45	49	52	68	75	86	94	78	75	77
Buloqboshi	166	174	182	193	190	219	229	234	242	261	251
Jalaquduq	159	164	170	184	204	225	226	234	244	255	264
Izboskan	235	242	254	265	279	268	289	295	307	314	320
Ulug'nor	42	45	52	57	68	72	72	74	83	85	85
Qo'rg'ontepa	265	270	281	289	275	298	315	309	349	422	340
Asaka	336	341	353	369	409	365	345	408	376	400	436
Marxamat	198	202	214	224	231	246	219	233	227	266	281
Shaxrixon	328	336	346	359	367	376	306	394	408	381	423
Paxtaobod	198	208	217	229	235	248	261	250	254	270	286
Xo'jaobod	168	176	184	189	194	206	191	201	201	199	216

Andijon viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatgan shifokorlar soni dinamikasi, (birlik)



2020-yil yakuniga ko'ra 10 000 nafar aholiga to'g'ri keladigan tibbiy xodimlar (shifokorlar) soni nisbiy statistik ko'rsatkich bo'lib, u shifokorlar sonini doimiy aholi soniga nisbati orqali ifodalanadi.

Andijon viloyatida ushbu ko'rsatkich 2020-yil yakuni bo'yicha 24,4 ni tashkil etdi.


2020-yilda Andijon viloyati aholisini tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi (10 000 aholiga)



	Shifokorlar	O'rta tibbiyot xodimlari
Viloyat bo'yicha	24,4	97,6
Andijon sh	85,0	183,3
Xonobod sh	18,8	123,0
tumanlar		
Oltinko'l	135,0	81,3
Andijon	13,4	72,4
Asaka	13,1	84,9
Baliqchi	14,8	88,6
Bo'ston	10,5	88,7
Buloq boshi	17,4	117,0
Jalaquduq	14,0	75,5
Izboskan	13,3	66,5
Qo'rg'ontepa	15,6	80,6
Marxamat	16,0	99,0
Paxtaobod	14,6	90,1
Ulug 'nor	14,1	105,8
Xo'jaobod	19,3	103,8
Shaxrixon	13,9	63,0

Tibbiyot xodimlari soniga – barcha ixtisoslik va turdagi tibbiyot muassasalarining (tibbiy yordam ko'rsatuvchi xususiy muassasalarni qo'shgan holda) shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari kiradi.

2020-yilda shifoxona muassasalarida xizmat qilayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni, (birlik)



Ma'lumot uchun:



O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga – sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, go'daklar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan barcha shaxslar kiradi

Andijon viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatgan o'rta tibbiyot xodimlari soni dinamikasi, (birlik)



2020 – yil - 31130

2019 –yil -30067

2018-yil - 28750

2017-yil - 27936

2016-yil - 27345

2015-yil- 26614

2014-yil- 25621

2013-yil -24177

2012-yil- 23192

2011-yil -22041

2010-yil - 20811

Andijon viloyati sifoxona muassasalarida xizmat qilgan o'rta tibbiyot xodimlari soni, (kishi)



	2010- y.	2011- y.	2012- y.	2013- y.	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Viloyat bo'yicha	20811	22041	23192	24177	25621	26614	27345	27936	28750	30067	31130
Andijon sh.	6142	6259	6415	6125	6384	6498	6715	7064	7730	7848	8247
Xonobod sh.	356	398	427	467	504	496	529	535	552	575	531
<i>tumanlar:</i>											
Oltinko'l	897	925	1034	1164	1215	1150	1175	1190	1290	1384	1468
Andijon	1269	1304	1392	1498	1563	1625	1714	1748	1737	1803	1933
Baliqchi	1174	1256	1321	1435	1541	1599	1631	1647	1640	1729	1799
Bo'ston	425	484	514	554	578	618	654	666	628	720	648
Buloqboshi	965	1054	1042	1132	1269	1322	1287	1348	1441	1607	1691
Jalaquduq	914	989	1036	1194	1230	1341	1214	1240	1263	1262	1419
Izboskan	1068	1163	1296	1305	1358	1401	1424	1439	1401	1505	1605
Ulug'nor	499	519	485	509	598	615	642	650	662	668	640
Qo'rg'ontepa	1201	1341	1426	1519	1614	1674	1686	1700	1847	1855	1759
Asaka	1459	1612	1865	1978	2068	2356	2471	2520	2411	2699	2823
Marxamat	1148	1198	1345	1439	1499	1541	1554	1572	1559	1703	1734
Shaxrixon	1451	1524	1411	1514	1681	1729	1882	1831	1831	1835	1912
Paxtaobod	1074	1174	1277	1356	1484	1561	1642	1685	1634	1747	1762
Xo'jaobod	769	841	906	988	1035	1088	1125	1101	1124	1127	1159

2020-yilda Andijon viloyatida tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyati

Viloyatda 2020-yil yakuni bo'yicha 376 ta tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyat ko'rsatdi. Aholi tomonidan chaqiriqlar soni 2613,8 ming marotabani tashkil etdi. Yil davomida jami 2836,8 ming nafar bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatildi.

Tez tibbiy yordam stansiyalari
va bo'linmalari soni - 376 ta

Bajarilgan chaqiriqlar soni -
2613,8 ming marta

Tibbiy yordam ko'rsatilgan
shaxslar soni -2836,8 ming kishi



2020-yilda Andijon viloyatida kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi

2020-yil yakuni bo'yicha Andijon viloyati aholisining asosiy sinflar bo'yicha kasalliklarga chalinishi (birinchi marta tashxis aniqlangan holatlar soni) 2035,2 ming nafarni tashkil etdi.

Aholi o'rtasida jami kasallanish holatlari ichida eng yuqori o'rinlarda nafas olish a'zolari kasalliklari 22,2 % ni, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 16,1 % ni, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar kasalliklari 13,8 % ni tashkil etgan.




Ma'lumot uchun



Aholining kasallanishi - yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktika ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Bemorlar kontingenti- joriy hamda o'tgan yillarda tibbiyot muassasalariga murojaat etgan va kasallikka chalingan barcha shaxslar kiradi.

2020-yilda aholini kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha chalinishi, %



Andijon viloyat statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Telefon (074) 224-82-69